

## TABALAR BILIMI BAHOLASH VA FANLARNI O'QITISHDA GOOGLE XIZMATLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Ashurova Munisa Muxiddinovna**

*University of Business and Science o'qituvchisi*

**Anotatsiya:** *Maqolada talabalar bilimini baholashda va fanlarni o'qitishda Google xizmatlari (Workspace) ning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z borgan. Google xizmatlarining bir-biridan farqi, bulutli texnologiyaga asoslangan xizmatning afzalliklari haqida batafsil to'xtalib o'tilgan.*

**Annotation:** *The article discusses the distinctive features of Google services (Workspace) in assessing students' knowledge and teaching academic subjects. It provides a detailed overview of the differences between Google services and highlights the advantages of services based on cloud technologies.*

**Kalit so'zlar:** *Google xizmatlar (Workspace), bulutli texnologiya, platforma, kommunikatsiya, integratsiya, online, gibrid ta'lim, Google Keep, google Calendar, elektron pochta*

**Keywords:** *Google services (Workspace), cloud technology, platform, communication, integration, online learning, hybrid education, Google Keep, Google Calendar, email*

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. An'anaviy o'qitish usullari bilan bir qatorda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish talabalar bilimini baholash va fanlarni o'zlashtirish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, Google kompaniyasi tomonidan taklif etilayotgan Google Workspace xizmatlari ta'lim jarayonini tashkil etish, nazorat qilish va tahlil qilishda keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Google xizmatlari — bu bulutli texnologiyalarga asoslangan platforma bo'lib, u o'qituvchi va talabalar o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishga xizmat qiladi. Ushbu xizmatlar yordamida o'quv materiallarini tarqatish, mustaqil ishlarni topshirish, testlar o'tkazish va baholash jarayonlarini avtomatlashtirish mumkin.

**Google Workspace** (ilgari G Suite deb atalgan) — bu Google tomonidan taqdim etiladigan bulutga asoslangan ofis va hamkorlik platformasi bo'lib, u turli xizmatlar va vositalarni birlashtiradi.

So'nggi yillarda bulutli texnologiyaga asoslangan har-xil xizmatlar talabalar orasida ommalashib bormoqda. Bunday texnologiyalar bilan tanish va kundalik turmush hayotimizda ularni qo'llay olish ham yaxshi samara beradi.

Quyidagi maqolada Google ning bir nechta foydali xizmatlari haqida to'xtalib o'tamiz.

### **Google xizmatlariga qanday xizmat misol bo'ladi?**

Bu Google kompaniyasi tomonidan yaratilgan va rivojlantirilib kelinayotgan xizmat turi hisoblanadi. Uning tarkibiga bir nechta xizmatlar kiradi.

- **Gmail** – professional email xizmatlari, shaxsiy domen bilan ishlash imkoniyati
- **Google Drive** – bulutli saqlash va fayllarni boshqarish.
- **Google Docs** – hujjatlarni yaratish va tahrirlash (Word).
- **Google Sheets** – elektron jadvallar bilan ishlash (Excel).
- **Google Slides** – taqdimotlar yaratish (PowerPoint).
- **Google Forms** – so‘rovnomalar va testlar yaratish.
- **Google Meet** – video konferensiyalar va onlayn uchrashuvlar.
- **Google Chat** – guruhli va individual xabar almashish.
- **Google Calendar** – uchrashuvlar va vazifalarni rejalashtirish.
- **Google Sites** – veb-saytlar yaratish va ulashish.
- **Google Keep** – tezkor eslatmalar va ro‘yxatlar yaratish.

Google Workspace (ilgari G Suite deb atalgan) — bu biznes va shaxsiy foydalanish uchun mo‘ljallangan bulutga asoslangan samaradorlik, hamkorlik va kommunikatsiya vositalari to‘plami bo‘lib, unda Gmail, Drive, Docs, Sheets, Slides, Meet, Calendar va Chat kabi integratsiyalashgan ilovalar mavjud. U shaxsiy domenli elektron pochta, kengaytirilgan saqlash hajmi, ilg‘or xavfsizlik va Sun‘iy intellekt (Gemini) integratsiyasini taqdim etadi, barcha xizmatlar markaziy admin panel orqali boshqariladi. Google Workspace jamoalarga har qanday joydan va har qanday qurilmadan birgalikda samarali ishlashga yordam berish uchun yaratilgan bo‘lib, ilovalar o‘zaro bog‘langan holda ish jarayonlarini soddalashtiradi.”

Talabalar bilimni baholash va fanlarni o‘zlashtirishda Google xizmatlarining bir necha afzalliklari mavjud. Real vaqtda o‘qituvchi va talabaning har-xil joylashuv joyidan turib darslarni online o‘tkazish imkoniyatining mavjudligi bu eng yaxshi afzalliklaridan biridir.

Ta‘limiy sohasi uchun eng yaxshi xizmatlarga quyidagilarni misol bo‘la oladi.

Google Docs- bulutli texnologiyaga asoslangan matn muharirri bo‘lib uning MS Worddan farqi shundaki hujjatlarni avtomatik saqlashi, qulay interfeys , jamoa bo‘lib ishlash vaqtida bitta hujjatni bir necha kishi tahrirlay olishi, bir-biriga uzatish imkoniyatlari mavjud.

O‘qituvchilar uchun ham bu talabalarga topshiriqlarni berishda ancha afzalliklarni beradi. Google Sheets test natijalari va baholarni tahlil qilishda muhim rol o‘ynaydi. Unda formulalar, diagrammalar va filtrlar yordamida talabalar bilim darajasi chuqur tahlil qilinadi. Real vaqt rejimida yangilanadigan jadval o‘qituvchiga tezkor qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

**Google Sheets (Google Таблицы)** - bu Google Workspace tarkibiga kiruvchi bulutga asoslangan elektron jadval dasturi bo‘lib, u bir nechta **o‘ziga xos xususiyatlari** bilan ajralib turadi:

#### **Bulutli texnologiyaga asoslanishiga qarab**

- Hujjatlarni avtomatik Google Drive ga saqlash;
- Internet mavjud bo‘lgan joyda har xil qurilmalardan kira olish;
- Ilovani kompyuterga o‘rnatish talab etilmasligi;

#### **Real-vaqtda hamkorlik o‘rnata olishi**

- Bir vaqtning o‘zida bir necha foydalanuvchilar bilan jadvalni tahrirlay olish;
- O‘zgarishlar jonli ravishda ko‘rinib turishi;

### **Diagramma va vizualizatsiya**

- Turli xil grafik va diagrammalar (pie, char va boshqalar)
- Diagrammalarni tez va oson yaratish;

### **Sun'iy intellekt bilan hamkorlikda ishlanishi**

- Gemini SI yordamida formulalar taklif qilishi, tahlil qilishi
- Google ning boshqa xizmatlari bilan to'liq integratsiyasi;
- Excel (.xlsx), CSV, PDF formatlari bilan ishlay olishi;

### **Mobil moslashuvchanlik**

- Android va iOS ilovalari mavjud;
- Telefon yoki planshetlarda ham tahrirlashning mavjudligi;

### **Google Classroom**

Google Classroom o'quv jarayonini boshqarish uchun mo'ljallangan platforma bo'lib, unda topshiriqlar berish, baholash, fikr-mulohaza bildirish va talabalar faoliyatini kuzatish mumkin. Ushbu xizmat baholash jarayonini tizimli va markazlashgan holda olib borishga yordam beradi. Yuqorida berilgan xizmat ichida eng ommabop va o'zida bir necha funksiyalarni jamlagani bo'yicha Google Classroom yetakchilik qiladi.

Google Classroom ta'lim jarayonini soddalashtiruvchi, shaffof va samarali platforma bo'lib, u ayniqsa onlayn va gibrid ta'lim uchun juda qulay.

### **Google Classroom ning o'ziga xos xususiyatlariga**

- Fanlar va kurslar bilan ishlashda alohida sinflar yaratish;
- Talabalarni kurslarga elektron pochta manzili yoki sinf kodini berish orqali taklif qilish
- Bir vaqtda bir necha sinf bilan ishlay olish;

### **Topshiriqlar berish va baholash**

- Uy vazifalari, testlar, loyihalar joylashtirish
- Har bir topshiriq uchun muddat belgilash

### **Google Forms bilan integratsiya mavjudligi**

- Test va nazorat ishlarini avtomatik tekshirish
- Natijalarni tezkor tahlil qilish
- Javoblarni Google Sheetsda saqlash va javoblarni diagrammasini shakllantirish

### **O'quv materiallarini ulashish**

- Ma'ruza, taqdimotlar, videolar va havolalarni ulashish
- Barcha ma'lumotlarning Google Driveda avtomatik saqlanishi;

### **Masofaviy ta'lim imkoniyatlari**

- **Google Meet** orqali onlayn darslar o'tkazish imkoniyati
- Dars mashg'ulotlarini saqlash va qayta ko'rish

### **Monitoring va tahlil**

- Talabalar faolligini kuzatib borish
- Berilgan topshiriqlarning bajarish holatini tekshirish
- Baholar va natijalar statistikasi ko'rish

Xulosa qilib aytganda, Google Workspace ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, talabalar bilimini oshirish va fanlarni samarali o'qitishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu platforma orqali o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi muloqot tezkor va qulay bo'lib, dars materiallarini tarqatish, topshiriqlarni bajarish hamda baholash jarayonlari soddalashtiriladi.

Google Classroom, Google Docs, Google Sheets, Google Slides, Google Meet kabi xizmatlar yordamida interaktiv darslar tashkil etish, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlash imkoniyati yaratiladi. Bulutli texnologiyalar asosida ishlashi tufayli talabalar istalgan vaqt va joydan o'quv materiallariga murojaat qila oladi, bu esa uzluksiz ta'limni ta'minlaydi.

Shuningdek, Google Workspace baholashning shaffofligini oshiradi, o'qituvchiga talabalarning faolligi va bilim darajasini tahlil qilish imkonini beradi. Natijada, ta'lim sifati yaxshilanib, talabalar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini egallaydi.

Umuman olganda, Google Workspace ta'lim tizimida raqamli transformatsiyani jadallashtiruvchi, fanlarni o'qitish samaradorligini oshiruvchi va talabalarning bilim darajasini yuksaltiruvchi muhim platforma hisoblanadi.

### FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. Balaji Iyer, Abhi Jeevaganambi Google Workspace User Guide: A practical guide to using Google Workspace apps efficiently while integrating them with your data 2022 Pact Publishing , 23-56 betlar
2. Kevin Pitch , Google Workspace Guide 2023, 124-134 betlar
3. Google Workspace For Beginners: A Complete Mastery Guide on G Suite Apps, 2025 , 56-67 betlar
4. Google workspace for beginners: a complete mastery guide on g suite apps with clear illustrations containing google docs, sheets, drive, gmail and slides, 2024 Kindle Edition, 12-20 betlar
5. <https://workspace.google.com>